



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

QODIROV JASURBEK SHAROFITDINOVICH

**Iqtisodiyot tarmoqlarida davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning
investitsiyaviy vositalari va ularning innovasion taraqqiyotdagi ahamiyati**

DXSh muayyan infratuzilmaviy loyihani amalga oshirish uchun davlat va xususiy sektorlar o'rtasida resurslarni birlashtirish va risklarni taqsimlashning samarali mexanizmi hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni jalb qilish, resurslar sinergiyasini ta'minlash orqali samaradorligini oshirish, shuningdek, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish DXSh tizimining asosini va maqsadini tashkil etadi. DXSh loyihalari iqtisodiyot tarmoqlarida turli investitsiyaviy dastaklar orqali amalga oshiriladi. Xususan, eng keng tarqalgan klassik turi bu davlat va xususiy sherik o'rtasida investitsion bitim tuzish asosida davlat sherigi xususiy sherikka bitimda nazarda tutilgan loyihani amalga oshirish, ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat ko'rsatish uchun mulk obyektini, mulkiy huquqni, intellektual mulk obyektini topshiradi, o'z navbatida xususiy sherik o'z mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'lar hisobiga, shuningdek, o'z riski ostida DXSh bitimida kelishilgan investitsion loyihani amalga oshiradi.


DXSh investitsion loyahasini amalga oshirishning yana bir vositasi investitsion majburiyatlarning ijara shartnomasidir. Bunda ijara beruvchi davlat sherigi xususiy sherikka mulkni unga investitsiya kiritish va aniq bir maqsadda foydalanish uchun ma'lum muddatga beradi. Davlat xaridi qonunchiligi doirasida hayot sikli shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyojlari uchun budjet mablag'lari

hisobiga xarid obyekti hayot siklining butun davrida tovar, xizmat va ishlar xaridini amalga oshirish DXShning alohida investitsiyaviy vositasi sanaladi. Shuningdek, xaridlar tizimi korporativ shakli doirasida davlat kompaniyalari tomonidan DXSh bitimlari tuzilishi orqali ham ularning ham infratuzilmaviy loyihalarning investitsiyaviy faolligi oshadi.

Konsessiya shartnomalari asosida amalga oshiriladigan loyihalar DXShning muhim investitsiyaviy vositasi hisoblanib, ushbu loyihalar ko'pchilik holatlarda ijtimoiy tusga ega investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladi, jumladan, jamoat transporti, temir yo'l, ta'lim, sport maskanlari qurilishi singari. Bunda konsessiya shartnomasi asosida bir tomon – konsessioner o'z hisobiga mulk huquqi ikkinchi tomon – konsedentga tegishli bo'lgan biror ijtimoiy obyektni barpo etadi, konsedent bitimga muvofiq egalik va foydalanish huquqini konsessionerga beradi. Buning afzalligi shundan iboratki, davlat va xususiy sherik rolda kelayotgan konsedent va konsessioner iqtisodiy faollikni ta'minlagan holda, o'zaro ijtimoiy va iqtisodiy manfaatli faoliyatni yo'lga qo'yadi¹.

Darhaqiqat, DXShda investitsiyalarni amalga oshirishda har ikkala tomon, shuningdek, jamiyat ham qator afzalliklarga ega bo'ladi (3-rasm). Xususan, davlat sherigi DXSh orqali ijtimoiy tusga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatishga xususiy biznesning imkoniyatlarini jalb qiladi, ayrim risklarni xususiy sektorga o'tkazadi, iqtisodiyotda davlatning ishtirokini kamaytiradi. Xususiy sektor esa davlat mulki evaziga xarajatlar bir qismini kamaytiradi, makroiqtisodiy va siyosiy risklarni davlat sherigiga o'tkazadi, avval davlat shug'ullangan bozor segmentlari hisobiga o'z bozori ko'lamini kengaytiradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribalari shundan dalolat beradiki, DXSh rivojlantirish, sohada investitsiyaviy dastak va vositalarning muvaffaqiyatli ishlashi mamlakatdagi barqaror siyosiy va makroiqtisodiy holat, davlat organlari va xususiy sektorning mas'uliyatni sezishi, xususiy biznes rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

¹ <http://pppcenter.ru>: Rossiya Federatsiyasi Davlat-xususiy sheriklik Milliy markazi rasmiy veb-sayti materiallari asosida muallif tomonidan keltirildi.



3-rasm. DXShning afzalliklari²

DXSh rivojlantirishning investitsiyaviy vositalari to'liq ishlashi mamlakatda soha bo'yicha ayrim tizimli muammolarni ijobiy hal etish natijalari bilan ham belgilanadi. Xususan:

- DXSh sohasida yagona tizimni yo'lga qo'yish. O'zbekiston Respublikasida DXSh nisbatan yangi soha bo'lishiga qaramasdan, qisqa muddatlarda o'ziga xos milliy tizim va yagona siyosat yo'lga qo'yilishiga erishildi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi va Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish Agentligining tashkil etilishi buning yaqqol ifodasidir.

- Iqtisodiy taraqqiyotda uzoq muddatli strategik rejalashtirish va davlat budjeti xarajatlarini prognozlashtirish. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilinishi va uning asosida islohotlar tizimlashtirilgan holda olib borilayotganligi, shuningdek, 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida Davlat budjeti

² Емельянов Ю.С., Хачатурян А.А. Национальная хозяйственная культура и культура предпринимательства // Проблемы теории и практики управления. 2009. № 8.

oldinga 3 yil uchun mo'ljallar (oriyentir) bilan qabul qilinayotgani DXSh ishtirokchilari uchun loyiha xarajatlarini to'g'ri rejalashtirishga imkon yaratmoqda.

- ma'lumotlarning oshkoraligi va haqqoniyligi. Bu omil boshqa investitsiyaviy faoliyat turlarining muhim omili bo'lgani kabi DXSh loyihalarini amalga oshirishda, aytish mumkinki, hal qiluvchi o'rinda turadi. Chunki, investorlar uchun ma'lumotlar to'liqligi, oshkoraligi va haqqoniyligi bozorni chuqur o'rganishga va turli yo'qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi.



4-rasm. DXSh loyihasining strukturasi³

Tobora taraqqiy etib borayotgan iqtisodiy munosabatlar, shu jumladan, DXSh mexanizmlari takomillashib borishi sohada ijtimoiy yoki infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq ana'anaviy yo'nalishlar bilan innovatsion loyihalar ham faollashib bormoqda. Xususan, DXSh tizimi orqali innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, biznes-inkubatorlari, texnoparklar va texnopolislar barpo etish yangi yo'nalish sifatida qo'llanilmoqda⁴.

Hozirgi zamonaviy iqtisodiy rivojlanish davrida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni to'g'ridan-to'g'ri budget mablag'lari bilan bog'lash, ushbu loyihalarning manbasi sifatida faqat budget mablag'larini qarash noto'g'ridir. Texnologik va iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichi innovatsion loyiha va ishlanmalarga biznesni kengroq jalb qilishni taqozo etmoqda. Innovatsiyalar bozorida ham chinakam raqobat muhiti shakllanib, aytish mumkinki, innovatsiyalar

³ www.review.uz: Tahliliy-axborot elektron portali ma'lumotlari asosida tuzildi

⁴Александрин Ю.Н. «Новые институты развития малого предпринимательства в инновационно-ориентированной экономике»//Экономические и гуманитарные науки. 2011. №3, (230). С. 14-21.

raqobatning eng asosiy vositasiga aylanib bormoqda, ya'ni innovatsiyasiz raqobat maydonida "tirik" qolish mumkin emasligi tobora ayon bo'lmoqda. Shu bilan birga, raqobatning qanchalik faol bo'lishiga qaramasdan, innovatsiyalar bozorining ham o'ziga xosliklari borki, bu singari innovatsion loyihalarni amalga oshirishda davlatning bevosita yoki bilvosita ishtiroki talab qilinadi. Xususan, ba'zi innovatsion loyihalar ko'p miqdorda kapital talab qilishi va uzoq muddatlarda qoplanishini inobatga olib, biznes ularda ishtirok etishdan manfaatdorligi past bo'ladi. Bunday holatlarda innovatsion loyihalar DXSh asoslangan davlat va biznesning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshirilishi mumkin. O'z vaqtida davlat xususiy biznes uchun innovatsiyalarni rag'batlantirish choralarini ko'radi⁵.

Innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlarida DXShni rivojlantirishda ham davlat ham xususiy biznes bir qator imkoniyatlarga ega bo'ladi. Jumladan, davlat xususiy sektor bilan hamkorlik qilishi natijasida davlatning tijorat faoliyati takomillashadi, davlat xaridlari sifati oshadi va qiymati pasayadi, iqtisodiyotning innovatsion modelini yaratishga xizmat qiladigan ilm-fan, texnologiyalar va texnikani rivojlantirishga qo'shimcha investisiyalar jalb qilinadi, innovatsion tadbirkorlik sohasidagi subyektlar faoliyati qo'llab-quvvatlanadi. Biznes uchun esa risklarni taqsimlash va asosiy vositalarga xarajatlarni tejash shartlarida yangi bozorlarga kirish va foyda olish, davlatdan qo'shimcha imtiyozlar va preferensiyalar olish, shuningdek, innovatsion ishlanmalar natijalarini tijoratlashtirish imkoniyatlari ochiladi. Bir so'z bilan aytganda, innovatsion muhitda davlat DXSh mexanizmi orqali xususiy biznesning nafaqat hamkori, shu bilan birga, kafolatiga ham aylanadi.

DXShning investitsiyaviy vositalaridan keng foydalangan holda, iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion jarayonlarni jadallashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini keltirib o'tish mumkin:

- DXSh tizimining yangi tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish;
- innovatsion faoliyat natijalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish;

⁵ Воротников А.М., Королев В.А. «О развитии государственно-частного партнерства в российских регионах»//Недвижимость и инвестиции. Правовое регулирование. 2010. №2.

- tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan motivatsiyani oshirish;
- davlat, biznes, ilm-fan va jamiyatning samarali hamkorligi nazarda tutuvchi qulay iqtisodiy va huquqiy muhit shakllantirish⁶;
- innovatsion sohani tartibga solishning samarali va rag'batlantiruvchi vositalarini ishlab chiqish;
- ilmtalab texnologiyalarni joriy etish bo'yicha biznes tomonidan jalb qilinadigan xorijiy investisiyalarga davlat kafolatlarini berish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;
- DXShda davlat va xususiy sherik o'rtasidagi manfaatlar va risklar muvozanatini ta'minlash;
- kichik biznes subyektlarini davlat maqsadli dasturlari va innovatsion loyihalariga kengroq jalb etish.

Innovatsion taraqqiyotda DXShni faollashtirishning davlat tomonidan amalga oshiriladigan eng muhim vazifalardan biri birgalikda moliyalashtirish va bilvosita moliyalashtirish mexanizmlarini yaratib berish, shuningdek, innovatsion infratuzilmaga investitsiya kiritishni samarali tartibga solish hisoblanadi. Bunda ilmiy-tadqiqot ishlanmalari va innovatsion loyihalar natijalarini tijoratlashtirish tizimini yaratish orqali biznesning innovatsion faoliyatga motivatsiyasini oshirish muhim yo'nalishlardan sanaladi⁷. Shuningdek, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi boshqa qator yo'nalishlar ham mavjud bo'lib, jumladan, imtiyozli soliq va kreditlar tizimlarini yaratish, tartibot hujjatlarini soddalashtirish, maqsadli subsidiyalar ajratish, biznesning risklarni bartaraf etishda qatnashish va kafolatlar berish singari yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

DXShda innovatsion loyihalarni moliyaviy jihatdan rag'batlantiruvchi yangi mexanizm sifatida maqsadli obligatsiyalar emissiyasini taklif etish mumkin. Ya'ni ushbu obligatsiyalar emissiyasi orqali davlat yoki mahalliy hokimiyat organi moliya

⁶ Веселовский М.Я. «Государственно-частное партнерство в инновационной сфере: современное состояние и перспективы»-МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). 2015. Т. 6.№ 3. С. 8-17.

⁷ Агарков С.А. «Инновационный менеджмент и государственная инновационная политика»/ М.: «Академия Естественных наук», 2011.

bozori operatsiyalarida ishtirok etgan holda iqtisodiyotdagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb etadi va ularni biron bir DXSh innovatsion loyahasini moliyalashtirishga maqsadli yo'naltiradi. Ushbu mexanizm O'zbekiston Respublikasi sharoitida qo'llash uchun birinchi navbatda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, maqsadli obligatsiyalar muomalasi bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur infratuzilmani shakllantirish lozim bo'ladi.

Umuman DXSh butun tizimi va u bilan bog'liq bo'lgan investitsiyaviy loyihalarni boshqarish, risk-menejment va innovatsiya sohalari muvaffaqiyati ushbu jarayonlarda ishtirok etuvchi kadrlarning malakasi va professionallik darajasiga bevosita bog'liqdir. DXSh tizimi bilan bog'liq ushbu sohalarda faoliyat yuritadigan mas'ul mutaxassislar uchun umumiy iqtisodiy bilimlar yetarli emas bo'lib, ular chuqur ixtisoslashtirilgan bilimlarga ega bo'lishi, tahlil va prognoz qilish malakasi shakllanishi, omillar va risklarni to'g'ri baholay olishi talab etiladi. Shuningdek, innovatsion loyihalarda ishtirok etadigan mutaxassislar bilan ilmiy-tadqiqot tashkilotlari o'rtasida doimiy hamkorlik va tajriba almashinuv yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq.

DXSh tizimida innovatsion yondashuvni tizimli qo'llash borasida Yevropa Kengashi tomonidan ma'qullangan DXSh orqali amalga oshirishning to'rtta innovatsion sohasini keltirib o'tish joizdir⁸:

- 1) robototexnika, avtomatlashtirilgan liniyalarning yangi avlodlarini yaratishda AKTning so'nggi yutuqlarini qo'llagan holda, ilmtalab ishlab chiqarishni tashkil etish.
- 2) fizik prototiplashga ehtiyojni kamaytiruvchi raqamli texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish.
- 3) insonning ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan yangi usullar va "yashil texnologiyalar" asosida ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish.
- 4) yangi kompozit materiallar ishlab chiqarish.

⁸ www.review.uz: Tahliliy-axborot elektron portali ma'lumotlari asosida tuzildi

Shuningdek, DXSh orqali tadqiqotlar va innovatsiyalarni amalga oshirish uchun agrar sektor va sog'liq saqlash sohasi ham tavsiya etiladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ham mamlakatning innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish asnosida davlat va xususiy investitsiyalarni innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot ishlari, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlanmalarga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat va xususiy biznes o'rtasidagi munosabatlarni, shu jumladan, DXSh munosabatlarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlarga urg'u berilmoqda. Butun dunyoda bo'lgani kabi DXSh innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning bir vositasi sifatida qabul qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Емельянов Ю.С., Хачатурян А.А. Национальная хозяйственная культура и культура предпринимательства // Проблемы теории и практики управления. 2009. № 8.
2. www.review.uz: Tahliliy-axborot elektron portali ma'lumotlari asosida tuzildi.
3. Александрин Ю.Н. «Новые институты развития малого предпринимательства в инновационно-ориентированной экономике»//Экономические и гуманитарные науки. 2011. №3, (230). С. 14-21.
4. Веселовский М.Я. «Государственно-частное партнерство в инновационной сфере: современное состояние и перспективы»-МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). 2015. Т. 6.№ 3. С. 8-17.
5. Агарков С.А. «Инновационный менеджмент и государственная инновационная политика»/ М.: «Академия Естествознания», 2011.
6. Воротников А.М., Королев В.А. «О развитии государственно-частного партнерства в российских регионах»//Недвижимость и инвестиции. Правовое регулирование. 2010. №2.